

ERKIN VOHIDOV SHE'RLARIDA ASSOTSIATIV BIRLIKLARNING QO'LLANILISHI

Bo'riyeva Munisxon
Alfraganus Universiteti

Annotatsiya. Maqolada Erkin Vohidov she'rlarida assotsiativ aloqa ko'rinishlari va assotsiativ birliklar inson xotirasida bir-birini tiklovchi, yodga soluvchi birliklar bo'lib, inson ongida o'xshashlik, yondoshlik va shu kabi boshqa umumiy belgilari asosida assotsiativ bog'langan birliklar juftligini hosil qilishi haqida yoritib berishga harakat qilingan.

Tilshunoslikda badiiy matnni assotsiativ aspektda o'rganishning ahamiyatini yoritish, olamning badiiy manzarasini yaratishda assotsiativ birliklarning roliga baho berish, assotsiativ birliklarning muallif lisoniy shaxsini yuzaga chiqarishdagi ahamiyatini ochib berishi yoritilgan.

Kalit so'zlar: *idiostil, assotsiativ aloqa, assotsiativ birlik, turtki so'z, sinonimiya, antonimiya.*

Kirish. Dunyo tilshunosligida o'tgan asrning so'nggi choragi assotsiativ tilshunoslik yo'nalishining shakllanishida yakuniy bosqich sifatida e'tirof etildi. Bu davrga kelib assotsiativ tilshunoslik yangi ilmiy yo'nalish sifatida psixolingvistikadan ajralib chiqdi. Dunyo tilshunoslari tomonidan assotsiativ tilshunoslik masalalariga qiziqishning ortishi va bu yo'nalishda ko'plab tadqiqotlarning amalga oshirilganligi, juda ko'p tillarda assotsiativ lug'atlarning yaratilganligi, assotsiativ grammatikaning tuzilganligi ushbu yo'nalishning mustaqil rivojlanayotgan soha sifatida e'tirof etilishiga olib keldi. Bugungi kunga kelib assotsiativ tilshunoslikning o'rganish obyekti, predmeti aniq belgilangan, tadqiq metodlari ishlab chiqilgan, nazariy masalalari, dolzarb muammolari belgilangan. Assotsiativ tilshunoslikda matn yaratuvchi ijodkor shaxsning assotsiativ tafakkuri, tasavvurlari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan assotsiatsiyalarning badiiy matnga ko'chishi, bunday birliklarning badiiy matndagi roli, ijodkor idiostilini shakllantirishdagi o'rni kabilarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Ushbu muammoni muayyan ijodkor badiiy asari misolida tadqiq etish assotsiativ tafakkur –

til – matn munosabati masalasiga doir ilmiy nazariy qarashlarni yangi bilimlar bilan boyitishi muqarrar.(1)

She'riy matnlarda assotsiativ birliklardan foydalanish, bu she'rxonning she'r mazmunini yaxshi tushunishiga va uni xotirada tez saqlanishiga yordam beradi

Erkin Vohidov she'riy asarlarining assotsiativ strukturasi tekshirish va shu asosda uning she'rlarida qo'llangan assotsiativ birliklarning hosil bo'lish omillarini aniqlash, shoirning matn yaratishda assotsiativ birliklardan foydalanish mahoratini ochib berishdan iborat.

Asosiy qism

Assotsiativ tilshunoslikda badiiy matnning semantik-sintaktik shakllanishida muhim o'rin tutuvchi, qismlarining mantiqan uzviyligini ta'minlovchi assotsiativ birliklarning hosil bo'lishi, badiiy matndagi vazifasi, insonning tasvir obyekti haqidagi tasavvurlari, bilimlari bilan bog'lanishi, yozuvchi idiositilini shakllantirishdagi o'rni kabi masalalar tahliliga jiddiy e'tibor qaratildi.

Badiiy matnni assotsiativ aspektda tadqiq etishga bag'ishlangan ishlarda ko'pincha matnda qo'llangan assotsiativ birliklarni o'rganishga e'tibor qaratildi. Assotsiativ birliklar muallifning individual-obrazli assotsiatsiyalari hamda muayyan tilning lug'at tizimida assotsiativ me'yorga aylangan birliklarga ajratilib tahlil qilindi. Xususan, rus tilshunosligida bu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlarda assotsiativ birliklar asar muallifi tomonidan hosil qilingan individual assotsiatsiyalar sifatida maxsus o'rganildi.(1) Ayrim tadqiqotlarda bu kabi individual assotsiatsiyalar muallifning idiositili nuqtayi nazaridan tekshirildi.(2)

O'zbek tilshunosligida badiiy matnning assotsiativ xususiyatlari ayrim ishlarda qisman yoritildi. Xususan, D.Xudoyberganova tadqiqotida badiiy matnning yaratilishida assotsiativ tafakkurning o'rni masalasiga munosabat bildirgan. Olima badiiy matnda assotsiativ birliklarning emotsionallik, ta'sirchanlikni ta'minlashdagi o'rniga baho bergan. Uning qayd etishicha, "Matnda psixologik holatlarni ifodalashda assotsiativ so'zlar ham muhim o'rin egallaydi. Bunday so'zlar matnda o'ziga xos assotsiativ maydon hosil qilib, matn o'quvchisining ruhiyatida ham muayyan holatni yuzaga keltiradi. Bunday holatning yuzaga kelishiga

matnda qo‘llangan, psixologik jihatdan o‘zaro aloqador bo‘lgan so‘zlar haqidagi obrazlarning qayta tiklanishi sabab bo‘ladi’’. (3)

Assotsiativ birliklar inson xotirasida bir-birini tiklovchi, yodga soluvchi birliklar bo‘lib, inson ongida o‘xshashlik, yondoshlik va shu kabi boshqa umumiy belgilari asosida assotsiativ bog‘langan birliklar juftligini hosil qiladi. Omon Matjonning quyidagi satrlarida so‘zlar ular anglatgan predmetlarning umumiy vazifasi asosida assotsiativ qatorlarga birlashgan:

*Mening **zulmat** hayotim aro,*

*”Yarq” etgan bir **nur** edi, bu zot.*

Berilgan parchada *zulmat – nur* assotsiativ juftlikni yuzaga kelgan. Zulmat va nur bir-biriga zid ma’noda yonma yon keladigan so‘zlar bo‘lgani uchun shoir xotirasida ularning bir-birini tiklashiga turtki bergan. Bu tarzda assotsiativ birlikning hosil bo‘lishi so‘z anlatgan otlar bir-biriga zid ma’nodagi juft so‘zlar bo‘lganligiga asoslanadi.

Shoirning quyidagi satrlarida esa assotsiativ aloqa yondoshlik asosida yuzaga kelgan: 1. *Paydo bo‘lgan olis **yulduzlar**,*

*El ko‘zidan pinhon **osmonda**. ...*

*Degaylarki, **charosu***

*Ol **gilos** olmish labingdan rang,*

Labing tegsa hasad qilgum

***Gilos** birla **uzumdan** ham. ...*

Ushbu parchalarda yulduz so‘ziga nisbatan qo‘llangan osmon hamda charosu gilos so‘ziga nisbatan gilos birla uzum assotsiativ birliklari yulduz, osmon hamda charos, gilos uzum so‘zlarining uyadoshlik munosabati asosida hosil bo‘lgan.

Erkin Vohidov she’rlarida assotsiativ aloqa turtki so‘z – assotsiativ birlik hamda she’rdagi o‘zaro assotsiativ bog‘langan birliklar orasida kuzatildi. Turtki so‘z va assotsiativ birlik o‘rtasidagi assotsiativ aloqa bevosita aloqa, bir assotsiativ birlikning boshqa birlik bilan aloqaga kirishib, so‘ngra turtki so‘z bilan bog‘lanishi esa bilvosita aloqa bo‘lib, ketma-ketlikka asoslanadi.

Shoirning sarlavhali she’rlarida turtki so‘z vazifasini she’r sarlavhasi bajargan. Chunki sarlavhaning mazmun-mohiyati she’rda u bilan

assotsiativ bog‘langan birliklar orqali ochib berilgan. Sarlavhasiz she‘rlarda tasvir obyektini bildiruvchi so‘zlar turtki so‘z vazifasida kelgan. Ular she‘r matnida eng ko‘p qo‘llangan so‘zlar, radif vazifasini bajargan birliklar, muallif nutqi qaratilgan undalmalardan tashkil topgan. Masalan, quyidagi she‘rda qalb, tasvir obyekti bo‘lganligi sababli uni turtki so‘z vazifasini o‘tagan deyish mumkin:

***Qalb** shunday ummonki, uning bag'rida,
Dahshatli dolg'alar silsilasi bor.*

***Qalb** shunday zaminki, otash qa'rida,
Vulqonlar otguvchi zilzilasi bor.*

Assotsiativ birliklarning o‘zaro aloqasida ularning paradigmatic va sintagmatic munosabati muhim o‘rin tutadi. Turtki so‘z – assotsiativ birlik yoki assotsiativ birlik – assotsiativ birlik o‘rtasidagi paradigmatic aloqa bu so‘zlar orasida kuzatiluvchi sinonimik, antonimik, omonimik, uyadoshlik, partonimik, giper-giperonimik munosabat asosida yuzaga chiqadi.(1)

Sinonimik munosabatga asoslangan assotsiatsiya Erkin Vohidovning quyidagi she‘riy parchasida kuzatiladi:

*Seni **jonim** dedim **yolg‘iz**,
Seni **qalbim** dedim **tanho**,...*

Mazkur she‘riy parchada jonim – qalbim hamda yolg‘iz – tanho sinonimiyasiga asoslangan assotsiatsiya ishlatilgan. Sinonimiya assotsiativ birlik – assotsiativ birlik o‘rtasida yuzaga kelgan.

*Gul faslida soz oldi yana ahli **navolar**, **kuy** boshladi yona,
Ne tongki, go‘zal bo‘ldi jahon, yer-u samolar, har tilde **tarona**.*

Ushbu she‘riy parchada navo, kuy – tarona sinonimiyasiga asoslangan assotsiatsiya ishlatilgan. Sinonimiya assotsiativ birlik – assotsiativ birlik o‘rtasida yuzaga kelgan.

Shoir she‘rlarida antonimlar assotsiatsiyasi assotsiativ birlik – assotsiativ birlik o‘rtasida ko‘zga tashlandi.

Masalan: ***G‘ayratlilar** yelib-yugurib,
Mehnat bilan mudom ovora.*

***Dangasalar** esa o‘y surib,
Yotish uchun izlar chora.*

Bu she'rda antonimik munosabatdagi g'ayratlilar - dangasalar assotsiatsiyasi qo'llangan. Bu birliklar assotsiativ me'yor sifatida tildan o'rin olgan.

Muhabbat birla chekkan –

*G'urbating **rohat** bilan tengdur.*

Muhabbatsiz va lekin

*Ishrating **kulfat** bilan tengdur.*

Bu she'rda antonimik munosabatdagi rohat – kulfat assotsiatsiyasi qo'llangan. Bu birliklar assotsiativ me'yor sifatida tildan o'rin olgan.

Erkin Vohidov she'rlarida uyadoshlik munosabatiga asoslangan assotsiatsiya turi ko'p kuzatildi.

Masalan: *Jilmayadi o'zida yo'q shod,*

*Yangi **oy** ham ketmay qoshingdan.*

*Etak – etak olib **koinot**,*

***Yulduz**laring sochar boshingdan.(5)*

Bu she'rda uyadoshlik munosabatidagi oy, koinot, yulduz assotsiatsiyalari qo'llangan. Bu birliklar assotsiativ me'yor sifatida tildan o'rin olgan.

Bahorning bahordek fe'llari bordir,

***Momoqaldir**og'i sellari bordir.*

*Goh sarin, goh achchiq **yellari** bordir,*

Cnunki u bahordir, o'lkamda bahor.(6)

Ushbu she'rida ham uyadoshlik munosabatidagi momoqaldir, sel, yel assotsiatsiyalari qo'llangan. Bu birliklar assotsiativ me'yor sifatida tildan o'rin olgan.

Yuqorida yozilganlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, tilda assotsiativ birliklar turli omillar ta'sirida yuzaga keladi. Assotsiativ birliklarning hosil bo'lishida til birligiga xos lingvistik belgilar qatorida jamiyatda shakllangan madaniy, siyosiy, diniy qarashlar, til egalarining voqelik haqidagi bilimlari, ko'rgan-kechirganlari, hayotiy tajribalari, shaxsiga xos jihatlar (yoshi, jinsi, kasb-kori, ijtimoiy mavqei, qiziqishlari) kabi tashqi omillarning ham ta'siri katta. Ammo shoirning she'rlarida so'zlarning ta'sirchanligini oshirish va esda saqlanib qolishi uchun

(sinonimik, antonimik, uyadoshlik) assotsiativ birliklardan qo‘llangan bir qator she’rlaridan parchalar keltirib o‘tildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmonov H. A. “Omon Matjon she’riy matnlarining assotsiativ strukturasi” f.f.n. PhD diss... – T.: 2023
2. Болотнова Н.С. Лексическая структура художественного текста в ассоциативном аспекте. – Томск: Томск. гос. пед. ин-т. 1994. – 212 с.;
3. Новикова А.М. Ассоциативные поля в языке и в структуре художественного текста: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1998; Бабенко И.И. Коммуникативный потенциал слова и его отражение в лирике М. И. Цветаевой: Дисс ... канд. филол. наук. – Томск, 2001. – 234 с.
4. Худойберганава Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2015. – 240 б.
5. Карпенко С.М. Ассоциативные связи слова в узусе и поэтическом тексте: На материале творчества Н. С. Гумилева: Дисс ... канд. филол. наук. – Томск, 2000. – 255 с.
6. Васильева А.А. Лексический аспект ассоциативного развертывания поэтических текстов О.Э. Мандельштама: Дисс. канд. филол. наук. – Томск, 2004. – 229 с.;
7. Брайнина Т.Д. Ассоциативные связи слова как основа создания образа в произведениях Саши Соколова: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – М., 2006. – 26 с.
8. Erkin Vohidov ”O‘zbekim”, Yangi asr avlodi, - T.: 2017.
9. Erkin Vohidov ”Ishq savdosi”, ”Sharq” nashriyot-matbaa konserni bosh tahririyati – T.: 2000 .
10. Jurayeva, N. G., Raimjanova, N. K., Djamalutdinova, B. R., Khorunova, S. B., & Jumaeva, S. D. (2021). Creative features of non-traditional lessons in English lesson in the sphere of higher education.

11. Xujaev, M. I. (2020). EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 5| Issue: 8| August 2020-Peer Reviewed Journal.
12. Xujaev, M. I. (2015). Некоторые особенности этических взглядов Axmet-Zaki Validova. *Credo new*, (2-2), 3.
13. Ismailov, G. M. (2016). Phraseological Picture Of The World In The Turkic Languages. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 11(43), 5-7.
14. Ismailov, G. (2019). Linguistic Peculiarities Of The Diplomatic Sub-Style In The Uzbek Language. In *Инновационные подходы в современной науке* (pp. 67-70).
15. Mirzayevich, I. G. Phraseologisms as a Representation of Culture, History, Folklore: Central Asian Languages (on Material of Uzbek, Kazakh and Karakalpak Languages).